

---

## Rishton tumanida Yangi yil bayrami tadbirlari avjida

Yangi yil bayrami Rishton tumanida ham o'ziga xos ko'tarinki ruhda nishonlanmoqda.

Tuman aholisi, ayniqsa yoshlar va jippi kichkintoylarga bayram kayfiyatini ulashish maqsadida tuman markaziga o'rnatilgan Yangi yil archasi atrofidagi bayram tadbirlari barchaga bayramona kayfiyat ulashmoqda.

Bezatilgan archa atrofida Qorbobo, Qorqiz, turli ertak qahramonlari bolajonlarning quvonch va shodliklariga sababchi bo'lishmoqda. Teatrlashtirilgan bayram tomoshalari, madaniyat bo'limi va yosh ijodkorlar tomonidan kontsert dasturlari namoyish etilmoqda.

Shuningdek, tumandagi barcha maskanlarda, mahallalar va go'shalarda Yangi yilga bag'ishlangan madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilmoqda.

Bayram archasi atrofidagi Yangi yil tomoshalari 2023 yilning 10 yanvariga qadar davom etishi belgilangan.

2022-12-30 11:35:55